

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Tuychiev</b>	
Chet tilini o'qitishda talabalarning tanqidiy fikrlash va so'zlashish malakalarini rivojlantirish bo'yicha debatlar tashkil etish .....	462
<b>M.Zohidova</b>	
Madaniyatlararo muloqotni ingliz tili darslarida video vazifalar orqali rivojlantirish.....	466
<b>B.Yunusova</b>	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi.....	470
<b>Z.Alimova</b>	
Navoiyning “Saddi iskandariy” asaridagi forscha-tojikcha so'zlarning semantik jihatdan guruhlanishi .....	475
<b>F.Yuldasheva</b>	
Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik tadqiqi .....	480
<b>J.Djamolov</b>	
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nuqtai nazaridan tilni rivojlantirish masalalari.....	484
<b>F.Xalimova</b>	
Badiiy konseptlar tipologiyasi .....	490
<b>D.M.Xoshimova</b>	
Tarjimada xarakter psixologiyasini aks ettiruvchi qiyosiy vositalar tarjimalari .....	494
<b>M.A.Hojiyeva</b>	
Mustaqil ta'lim vositasida bo'lajak filolog mutaxassislarning terminologik kompetentligini rivojlantirish .....	497
<b>Sh.S.Irgasheva</b>	
Ingliz tilida internet diskursidagi neologizmlar faoliyatining semantik xususiyatlari .....	502
<b>G.M.Mamadjanova</b>	
Konstantalarni asosiy lingvokulturologik birliklar sifatida o'rganish .....	507
<b>V.A.Giyosova</b>	
Murojaat birliklarining ijtimoiy-lisoniy tahlili .....	512
<b>Z.S.Paziljanova</b>	
Madaniyatlararo muloqotda muloqot modellari .....	517
<b>A.A.Haydarov, Z.T.Yadgarova</b>	
Ritm, qofiya, intonatsiya .....	520
<b>I.T.Hojaliyev, M.Sh.Xolmatov</b>	
Xotira matnlaridagi polisemantik so'zlarning semantik-strukturasi .....	524
	<b>FANIMIZ FIDOYILARI</b>
<b>SHARIFAXON ISKANDAROVA</b> .....	529

## XOTIRA MATNLARIDAGI POLISEMANTIK SO‘ZLARNING SEMANTIK-STRUKTURASI

## СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНЫЕ МНОГОЗНАЧНЫЕ СЛОВА В ТЕКСТАХ ПАМЯТИ

## SEMANTIC-STRUCTURE OF POLYSEMANTIC WORDS IN MEMORY TEXTS

Hojaliyev Ismoiljon Tajibayevich<sup>1</sup>, Xolmatov Mardonjon Sherali o‘g‘li<sup>2</sup><sup>1</sup>Hojaliyev Ismoiljon Tajibayevich

– Farg‘ona davlat universiteti, tilshunoslik kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

<sup>2</sup>Xolmatov Mardonjon Sherali o‘g‘li

– Farg‘ona davlat universiteti, lingvistika: o‘zbek tili magistranti.

**Annotatsiya**

Maqolada Xotira matnlaridagi polisemantik so‘zlarning semantik va ularning strukturasi tadqiq qilingan. Polisemantik leksema ma‘nolarining oppozitsiyasiga ko‘ra polisemiyaning quyidagi turlarini (assosiati polisemiya va assosiativ-mazmuniy polisemiya) xotira matnlaridagi ko‘p ma‘noli so‘zlar orqali yoritib berilgan. Bundan tashqari polisemiyalarda ma‘no ham assosiativ, ham mazmuniy tomondan bog‘lanishi va ularning semantik strukturasi o‘xshash bo‘lishi hamda bir leksema tarkibidagi sememalarda umumiy, bir xil semalar miqdori ko‘p bo‘lishini tahlil orqali ochib berishga kirishilgan.

**Аннотация**

В статье исследована семантика многозначных слов в текстах памяти и их структура. По противопоставлению значений многозначной лексемы выделяют следующие виды многозначности (ассоциативная многозначность и ассоциативно-содержательная многозначность) через многозначные слова в текстах памяти. Кроме того, с помощью анализа было установлено, что в полисемиях значение связано как ассоциативно, так и содержательно, и что их семантическая структура схожа, и что семемы, содержащиеся в одной лексеме, имеют много общих идентичных семем.

**Abstract**

The article examines the semantic and their structure of polysemantic words in memory texts. According to the opposition of the meanings of the polysemantic lexeme, the following types of polysemy (Associati polysemia and associative-content polysemy) are illuminated through multi-meaning words in memory texts. In addition, in polesemias, the meaning is linked from both the associative and the content side, and their semantic structure is similar, and it is started to reveal through analysis that the sememes contained in one lexeme contain a large amount of common, identical semes.

**Kalit so‘zlar:** Polisemiya, ekstralingvistik, hosila ma‘no, radial, zanjrsimon, radial-zanjrsimon, assosiati polisemiya, assosiativ-mazmuniy polisemiya.

**Ключевые слова:** многозначность, экстралингвистический, производное значение, радиальный, цепной, радиально-цепной, ассоциативная многозначность, ассоциативно-содержательная многозначность.

**Key words:** polysemy, extralinguistic, derivative meaning, radial, chained, radial-chained, associati polysemy, associative-content polysemy.

**KIRISH**

So‘zning semantik tuzilishi (strukturasi) bevositida ma‘no bilan bog‘lanadi. Chunki semantik qurilishga ega bo‘lmagan ma‘no yo‘q. Har bir ma‘no semantik tuzilishga, tarkibga ko‘ra baholanadi. U muayyan so‘zning mazmun tomonini hosil qilib, o‘z tovush asosi - ifoda tomoni bilan birgalikda, bir butun holda til va nutqda muayyan vazifa bajaradi. Aniqrog‘i, ma‘no ruhiy mohiyat – ong hodisasi sifatida o‘zining tashqi (ekstralingvistik) asosiga ega. Har bir mustaqil ma‘noli so‘z asosini hosil qiluvchi obyektiv borlik predmet, narsa - hodisalari o‘zining tabiiy tuzilishiga, qurilish a‘zolariga ega bo‘lib, ularning har biri tildagi (lisoniy) nomida - til birligi (so‘z)da, so‘z ma‘nosida aks etadi.

Polisemiya so‘zning yoki belgining ko‘p ma‘noliligi, bir so‘z yoki belgida bir necha ma‘noning mavjudligidir. Ko‘pgina so‘zlar (shuningdek, grammatik shakllar va sintaktik konstruktsiyalar) bir emas, bir necha (ikki yoki ko‘p) ma‘no bildiradi, turli predmet va voqea – hodisalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.[1.74]

Polisemiya semasiologik kategoriya sifatida bir til birligi shaklida ifodalangan turli ma‘nolarning ichki, o‘zaro bog‘langan semantik munosabatidir. Tilning qaysi sathiga aloqador bo‘lishidan qat‘i nazar, polisemiya obyektiv qonuniyatlar ta‘sirida paydo bo‘ladi. Demak, polisemiya

## TILSHUNOSLIK

bir soʻz yoki bir sintaktik konstruksiyadan turli xil leksik va grammatik – signifikativ maʼnolarning oʻsib chiqishidir.[2.118]

Bundan koʻrinib turibdiki, ushbu maqolada polisemiyalarning xotira matni leksikasidagi semantik-strukturasi ochib beriladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Fanda polisemiya keng va tor maʼnolarda tushuniladi. Keng maʼnoda qaralganda, u omonimiya, funksiyadoshlik hodisalari bilan yonma – yon turuvchi, lekin ulardan oʻziga xos lisoniy xususiyatlariga koʻra farq qiluvchi hodisa sifatida tushuniladi. Tor maʼnoda esa polisemiya hodisasi omonimiyaning tarkibiy qismiga aloqador bir koʻrinish sifatida qaraladi (A.A.Potebnya, F.Danesh). Xususan, A.A.Potebnya lugʻaviy birlik nechta maʼnoga ega boʻlsa, u oʻshancha soʻz boʻladi, deb polisemiyani inkor etmoqchi ham boʻladi. Sh.Balli polisemiya va omonimiyani oʻzaro farqlaydi: birdan ortiq ifodalanuvchiga ega boʻlgan bir belgi polisemiya, ifodalovchi tomoni mushtarak boʻlgan va har xil ifodalanuvchiga ega boʻlgan, birdan ortiq (ikki) belgini omonimiya deb koʻrsatadi.[3]

Polisemiya til hodisasi sifatida talqin etilganda, gap til hodisasi sifatida qaraladi. Polisemantiklik (yoki omonimlik) gapning toʻliq sintaktik qurilishi bilan emas, balki gapning konkret sintaktik qurilishini tipiklashtiruvchi va uni abstrakt jabhaga olib chiquvchi konstruksiya, struktur sxema, model va h.k. atamalar bilan nomlanib kelinayotgan qurilmalarga nisbatlanadi. Y.I.Shendels, V.A.Guliga, A.L.Vasilyevskiy, D.A.Salkova, G.A.Zolotova, A.Berdialiyev, A.Mamajonov va boshqa tilshunoslarning ishlarida sintaktik polisemiyaga ana shunday nuqtai nazar asosida yondashiladi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Polisemantik soʻzning leksik maʼnolari oʻzaro aloqadorligiga nisbatan uch turga boʻlinadi. Ular bosh, asos va hosila maʼnolardan iboratdir.[4.112]

Polisemiya bir nomema orqali bir necha sememalarni ifodalaydi.

Polisemiyani ikki belgiga koʻra guruhlanadi:

1) hosila maʼnoni bosh maʼno bilan munosabatiga koʻra;

2) maʼnolarning oppozitsiyasiga koʻra;

1. Hosila maʼnolarning bosh maʼno bilan munosabatiga koʻra tilshunoslikda polisemiyaning 3 ta turi ajratiladi:

✓ radial;

✓ zanjirsimon;

✓ radial-zanjirsimon.

2. Polisemantik leksema maʼnolarining oppozitsiyasiga koʻra polisemiyaning quyidagi turlari ajratiladi:

✓ assotsiati polisemiya;

✓ assosiativ-mazmuniy polisemiya.[5.62]

Oʻzbek tilida **quloq** soʻzi ham polisemantik soʻz hisoblanib, hosila maʼno bosh maʼnodan bevosita kelib chiqqan. Ushbu soʻzga 2006-yilda jamlangan 5 tomlik Oʻzbek tili izohli lugʻatidagi izohlar asosida xotira matnlaridagi misollar orqali tahlil qilamiz:

**QULOQ 1** Odam hamda umurtqali hayvonlarning eshitish hamda muvozanat aʼzosi va uning tashqi qismi.

«...Kichkina, tirnoqcha keladigan tilla halqani dadam Maskavdan olib keltirgan edi. Qolgan yakka isirgʻani **quloqʻimdan** olar ekanman, shunday nafis bir bezakning yoʻqolganiga ham, uydagilarning gap-soʻzlariga ham eʼtibor bermadim». (Z. Saidnosirova «Oybegim mening»)

Ushbu gapda quloq soʻzi sematik-struktur jihatdan denotativ maʼnoda qoʻllanilib insonning eshitish aʼzosi ifodalangan. Bu gapdagi maʼno bosh maʼno hisoblanib qolgan koʻchma maʼnolarni hosil qilishga asos vazifasini bajaradi.

**QULOQ 2** Baʼzi narsalarning ushlab, ilib qoʻyish yoki mahkamlash uchun xizmat qiladigan qismi.


«...— Shoshma, Musa, hozir Markazqoʻmga, Niyozovga telefon qilaman, — dedi-da, **telefonning quloqʻini** koʻtarib, raqamlarni tera boshladi. Niyozov joyida yoʻq edi. — Ha, mayli, soʻngroq qoʻngʻiroq qilaman, — dedi u». (Z. Saidnosirova «Oybegim mening»)

Ushbu gapda qo'llanilgan quloq so'zi telefonni ushlab, ilib qo'yish ma'nolarida qo'llanilgan bu gapda ma'no ko'chishining metafora usuli yuzaga kelgan. Hosila ma'nolarning bosh ma'no bilan munosabatiga ko'ra zanjirsimon (yelpig'ichsimon)[4] polisemiyaning yuzaga keltirgan.

Yuqoridagi ma'nolardan tashqari quloq so'zi 2006-yilda jamlangan 5 tomlik O'zbek tili izohli lug'atida 6 xil ma'noga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Bular quyidagilar:

**QULOQ 3.** Bosh kiyimlarning quloqlarni va iyakni yopib, issiq tutib turish uchun tushirib qo'yiladigan uzun qismi. **QULOQ 4.** Ba'zi mexanizm va musiqa asboblarning burab ishg'a tushirish yoki sozlash uchun xizmat qiladigan qismi. **QULOQ 5.** Avtomobil, traktor va sh. k. mashinalarni boshqarish uchun xizmat qiladigan qurilmasi; rul. **QULOQ 6.** O'simlikning barg yoki nihol yozadigan yeri; dastlabki niholcha, bargcha.

Bulardan shuni anglash mumkinki, quloq leksemasi bosh(denotativ) ma'nosidan bevosita metafora asosida ko'chma (konnotativ) ma'no ajralib chiqqan. Quloq leksemasi hosila ma'noni bosh ma'no bilan munosabatiga ko'ra zanjirsimon bog'langan. Ya'ni quyidagi ko'rinishda:



Zanjirsimon bog'lanishda konnotativ ma'no birin-ketin bog'lanish hosil qiladi bu esa ko'rinish (sxema) jihatdan zanjirni eslatib yuboradi. Bu ko'rinishda birinchi quloq leksemasi qolgan ko'chma ma'nolarga bevosita bog'lanadi. Aksincha, qolgan ko'chma ma'nolar bir-biriga bilvosita bog'lanadi. Ushbu bog'lanishlar zanjirsimon (yelpig'ichsimon) deb yuritiladi.[5.63]

Hosila ma'noni bosh ma'no bilan munosabatiga ko'ra radikal bog'lanishi quyidagi polisemantik **bahor** so'zi orqali ifodalanishiga ahamiyat bersak. Ushbu so'zga 2006-yilda jamlangan 5 tomlik O'zbek tili izohli lug'atidagi izohlar asosida xotira matnlaridagi misollar orqali tahlil qilamiz:

**BAHOR 1** Yildagi to'rt faslning biri, qishdan keyingi, yozdan oldingi fasl; ko'klam (yilning mart, aprel, may oylariga to'g'ri keladi).

«...1954-yilning **bahorida** Matlab bizning davramizdagilar orasida birinchi bo'lib nomzodlik dissertasiyasini yoqladi va fizika-matematika fanlari sohasidagi eng yosh fan nomzodi bo'ldi».(O.Sharafiddinov «Domlalar»)

Ushbu gapda qo'llanilgan bahor leksemasi semantik jihatdan bosh ma'no ya'ni to'rt faslning biri, qishdan keyingi, yozdan oldingi fasl, ko'klamni ifodalangan.

**BAHOR 2 ko'chma** Har narsaning (umrning, hayotning) yashnagan, kamolga yetgan payti, shunday chog'lar ramzi.

*Yosh ko'ngillar sho'xlik qilsa yarashar,  
Toyelardaga buloq, kabi sho'x, shod bul!  
Sho'x ruhlarda hayot qaynar, ishq toshar,*

**Bahoringni** xarob qilmas alam, do'l. (Z. Saidnosirova «Oybegim mening»)

Ushbu gapda qo'llanilgan bahor so'zi semantik jihatdan ko'chma ma'noda qo'llanilgan. She'rdagi bahor so'zi bosh ma'nosidan metafora orqali hosila ma'no kelib chiqqan. Ya'ni hosila ma'no umrning yashnagan davri, kamolga yetgan paytini ifodalagan. Bundan tashqari bahor leksemasi izohli lug'atda quyidagi ma'nolarda qo'llanilishi qayt etilgan. **BAHOR 3 ko'chma** Quvonch, shodlik, baxt. **BAHOR 4 ko'chma** Sevgi, muhabbat; umid. **BAHOR 5 ko'chma** Sevgili, ma'shuqa, go'zal yor. **BAHOR 6** Bahor (xotin-qizlar ismi). Bu so'zlarda birinchi hosila ma'no ikkinchi hosila ma'noga nisbiy bosh ma'no hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bahor leksemaning bosh ma'nosi o'zining qolgan hosila ma'nosiga nisbatan hosila ma'noni bosh ma'no bilan munosabatiga ko'ra radial va radial-zanjirsimon usulda bog'langan.

Polisemantik leksema ma'nolarining oppozitsiyasiga ko'ra polisemiyaning quyidagi turlarini (assosiativ polisemiya va assosiativ-mazmuniy polisemiya) xotira matnlaridagi ko'p ma'noli so'zlar orqali yoritib beramiz. Demak, assosiativ polisemiya — ma'no jihatda bosh ma'no qolgan hosila ma'nolarga ancha uzoq semantik strukturaga ega bo'ladi. Buni **lab, tish, qanot, oyoq** kabi

## TILSHUNOSLIK

polisemantik soʻzlar misolida koʻrishimiz mumkin. Bundan tashqari **iz** leksemasining izohlarini yoritish orqali fikrimiz yaxshiroq yetkazib bersak. 2006-yilda jamlangan 5 tomlik Oʻzbek tili izohli lugʻatida **iz** leksemasi quyidagicha taʼriflangan va biz misollarni xotira matnlari orqali izohladik:

**IZ 1** Biror narsa sathida (yuzasida) boshqa narsaning tegishi, bosilishi va sh. k. natijasida undan qolgan, uni bildiruvchi aksi.

«...*Bu Shamsi Toʻrayevichning qabristonga kelishi. U otasining goʻri qayerdaligini bilmaydi. Koʻmib ketishganlaridan keyin biron marta qadam izi qilmagan*».(Said Ahmad «Yoʻqotganlarim va topganlarim»).

**IZ 2** Biror narsadan yoki kimsadan qolgan asar, belgi.

«...*Goʻzalim bir keldi, ketdi nur kabi,*

*Koʻnglim va koʻzlarim qoldi izida.*

*Qoʻlida «Fuzuliy» — sevgan kitobi,*

*Oq shoyi koʻylakda, toʻlqin koʻksida*».(Z. Saidnosirova «Oybegim mening»)

**IZ 3** koʻchma Biror narsaning (uni ifodalovchi) kichik bir aksi; nishonasi.

«...*Yoshli koʻzlarimdan sira ketmaydi.*

*Kovushgan kunlarning u oltin izi.*

*Choleimning ingrashi senga yetmaydi,*

*Mangulik qochdingmi, ey xayol qizi?*».(Z. Saidnosirova «Oybegim mening»)

**IZ 4** Bosib oʻtilgan (oʻtilayotgan yoki kelinadigan) tomon, yoʻl.

«...*Oybek qoʻyni yetakladi. Oyim ikkovimiz orqadan xaydadik. Bozorga yoʻl oldik. Sigir qimmat, sutli sigir esa bir xovlining puli ekan. Biz yana qoʻy-koʻzini xaydab, izimizga kaytib keldik. Keyin soʻyib yedik*».(Z. Saidnosirova «Oybegim mening»)

**IZ 5** Ish-harakat, faoliyatdagi yoʻl, yoʻnalish.

«...*Gʻafur akaning oʻzi oʻsha buyuk ustozlar izidan borishga intilardi. Shuning uchun ham u tariximizni mukammal bilar, rasmlar chizar edi. U raqs tushganda davradan zoʻr raqqosalar ham chiqib tomosha qilardi. Qoʻliga taqsimcha olib, xalq termalarini aytganda, hamma jimib qolardi. Dutor chertganda, tinglovchilar bosh egib tebranishardi. Gʻafur aka Yusuf qiziqlar bilan teng kelib askiya aytishardi. Latifa aytishda unga hech kim teng kelolmasdi. Xalq dostonlarini baxshidek ohangi bilan, ifodasi bilan boshdan-oyoq ayta olar edi*»».(Said Ahmad «Yoʻqotganlarim va topganlarim»).

**IZ 6** Tramvay, poyezd va sh. k. gʻildiraklari ostiga (yurish uchun) yotqiziladigan maxsus qurilma.

«...*Toshkentda tramvaydan boshqa transport yoʻq. Biz tramvay izi tushmagan koʻchalarni piyoda bosamiz*».(Z. Saidnosirova «Oybegim mening»)

Bu turdagi polesemiyalarda maʼno ham assosiativ, ham mazmuniy tomondan bogʻlanadi va ularning semantik strukturasi oʻxshash boʻladi. Yaʼni, bir leksema tarkibidagi sememalarda umumiy, bir xil semalar miqdori koʻp boʻladi.[5.65]

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xotira matnlarining eng asosiy elementi bu — soʻz. Soʻzning semantik tuzilishi (strukturasi) bevositida maʼno bilan bogʻlanadi. Chunki semantik qurilishga ega boʻlmagan maʼno yoʻq. Har bir maʼno semantik tuzilishga, tarkibga koʻra baholanadi. U muayyan soʻzning mazmun tomonini hosil qilib, oʻz tovush asosi - ifoda tomoni bilan birgalikda, bir butun holda til va nutqda muayyan vazifa bajaradi. Aniqrogʻi, maʼno ruhiy mohiyat – ong hodisasi sifatida oʻzining tashqi (ekstralingvistik) asosiga ega. Har bir mustaqil maʼnoli soʻz asosini hosil qiluvchi obyektiv borliq predmet, narsa - hodisalari oʻzining tabiiy tuzilishiga, qurilish aʼzolariga ega boʻlib, ularning har biri tildagi (lisoniy) nomida - til birligi (soʻz)da, soʻz maʼnosida aks etadi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, har bir leksema boshqa leksemalar bilan munosabatga kirishganda hosila maʼnosi turli xil koʻrinishda shakllanadi va turli xil semantik maʼnolarni anglatadi.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Шмелёв Д.Н. Современный русский язык. –М.: Просвещение., 1977. ( Shmelev D.N. Modern Russian language. –М.: Enlightenment., 1977.)
2. Будагов Р.А. Человек и его язык. –М.: МГУ., 1976.( Budagov R.A. Man and his language. –М.: MSU., 1976.)
3. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. –М.: Изд.ин.лит. 1955.

- (Bally Sh . General Linguistics and questions of the French language. –M.: Ed.in.lit. 1955.)
4. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Тошкент:Фан, 1975.( Mirtaciev M. Polysemy in Uzbek. - Tashkent: Science, 1975.)
  5. Ҳақимова М. Семасиология. . — Тошкент «Ҳамидов Н.Ҳ» матбаа корхонаси, 2008. (Doctor M. Semasiology. . - Tashkent " Hamidov N.H " printing enterprise, 2008.)
  6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.( Mirtaciev M. Semasiology of the Uzbek language. - Tashkent: classical Word, 2010.)
  7. Шамақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.( Shamaqsudov A. Uzbek language Stylistics. - Tashkent: Teacher, 1983.)
  8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-5-томлар, Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006-2008 й (Explanatory Dictionary of the Uzbek language. 1-5-roofs, t.: State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2006-2008)
  9. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Т. : “Fan”, 2006.( Yuldashev M. The foundations of the literary text and its linguopoietic analysis. Т. : "Science", 2006.)
  10. Шарафиддинов О. Домлалар. — Тошкент.: «Маънавият», 2009. (Sharafiddinov A. Domains. - Tashkent.: "Spirituality", 2009.)
  11. Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. — Toshkent.: “Sanostandart” нашриёти, 2014.( Said Ahmed. What I lost and what I found. - Tashkent.: Publishing house” Sanostandart”, 2014.)
  12. Саидносирова З. Ойбегим менинг. — Toshkent.: «Шарк», 2005. (Saidnosirova Z. Oybegim my. - Tashkent.: "Shark", 2005.)